

"O‘ZBEK ADABIYOTI VA KASB – HUNAR LEKSIKASI. BADIY VA LINGVISTIK UYG‘UNLIK"

Abdumannonova Shaxinur Valijon qizi.
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi kasb-hunar leksikasi tavsifi tahlil qilinadi. Kasb-hunar sohasiga oid so‘zlarning lingvistik xususiyatlari, ularning ma‘no doirasi va qo‘llanishi o‘rganiladi. Tadqiqotda mazkur leksikaning xalq madaniyati, an‘analari va kasbiy sohalar bilan aloqadorligi, shuningdek, zamonaviy o‘zgarishlarga moslashuvi tahlil qilinadi. Maqola kasb-hunar leksikasini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishda yangi yondashuvlarni taklif etadi.*

ANNOTATION: *This article examines the description of vocational and professional vocabulary in the Uzbek language. The linguistic features, semantic scope, and usage of words related to various trades and professions are analyzed. The study explores the connection of this vocabulary with folk culture, traditions, and professional fields, as well as its adaptation to modern changes. The article proposes new approaches to the theoretical and practical study of vocational vocabulary.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируется описание профессиональной и ремесленной лексики узбекского языка. Рассматриваются лингвистические особенности, семантический диапазон и употребление слов, связанных с различными профессиями и ремеслами. Исследование изучает связь данной лексики с народной культурой, традициями и профессиональными сферами, а также её адаптацию к современным изменениям. Статья предлагает новые подходы к теоретическому и практическому изучению профессиональной лексики.*

Kalit so‘zlar: *kasb-hunar leksikasi, o‘zbek tili, lingvistik tahlil, xalq madaniyati, an‘analar, kasbiy atamalar, semantika, zamonaviy o‘zgarishlar, leksikologiya, amaliy tahlil.*

Key words: *vocational vocabulary, Uzbek language, linguistic analysis, folk culture, traditions, professional terminology, semantics, modern changes, lexicology, practical analysis.*

ключевые слова: *профессиональная лексика, узбекский язык, лингвистический анализ, народная культура, традиции, профессиональная терминология, семантика, современные изменения, лексикология, практический анализ.*

Muayyan adabiy tilning so‘z boyligi o‘z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada e‘tirof etilgan voqelikdir. O‘zbek terminologiyasi tizimi ham bundan mustasno emas.

Movarounnaxrda X-XI asrdan (qoraxoniylar davridan) ilgari yashagan turkiy urug‘ va qabilalar son jihatdan oz emas edi. Ularning ko‘proq qismi Farg‘ona va Shoshda, bir qismi esa, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida yashaganlar. VIII-IX asrlarda Farg‘ona va

Shoshga turklar yana ham ko'plab kelib kirgan edilar. Farg'onada qarluqlar, jikillar, uyg'urlar; Shoshda o'g'uzlar ko'paygan edi.

Shuning natijasida bu viloyatlarning qishloq joylaridagi, turk tilidan boshqa tillarda gaplashuvchi xalqlari so'g'd mamlakatidagilardan ko'ra ilgariroq til jihatdan turklashganlar. Qoraxoniylar davrida esa, shahar yana o'sgan, kasb-hunar taraqqiy etgan.

“Qutadg'u bilik” va “Devonu lug'otit-turk”largacha bo'lgan eng eski turkiy yozma yodgorliklarda quyidagicha kasb-hunar terminlarini uchramiz: arik, osh, badiz (o'yma naqsh), baoizgich (o'ymakor usta), beshik, bichku (pichoq), bodruk (va dirzul Juluz-yaroq ma'nosida), bork (bino, imorat), vazirlig (oltinli ma'nosida bo'lib, Chistoni Eligbekning hikoyasida uchraydi) uonu, nun un, yilbiku (yelpig'ich), aulo (chirog'), kadim (kiyim), ko'zungu (kuzgu, oyna), kumulduruk, kumush, kunjut oyoq 1) tovon 2) oyoq ma'nolarida, olmun, oltuk tuyub (oltin taka), oltin qazish, ovkom, osh, (gaom), sichgonok (chig'onok). soluk (savdo, oldi-sotti) sorig olmun, sulgu, sum, sunguk (suyak), taba (tuya), tamir, tamir kopig (temir darvoza), mok, tomno (tomga, muxr), monuk (muhr), kobon (patnus kabi idish), tugunuk (tuynuk), mun (kiyim), mushak, muyuk (taka), to'lguk (ombir), mukmok uruk (arg'amchi), yula (shamdon), urdak, uk, kamuj (datum) (cho'mich ma'nosida), kamuk, kilim, kobuk va kolug (eshik, darvoza), koz (goz), kongli (arava), ko'rursok (qilich) va h. k.

Kasb-hunar terminlari XI asr yozma yodgorliklarida ham anchagina uchraydi. Keyingi asrlarga yaqinlasha borgach, adabiyotlarda kasb-hunar terminlari tobora ko'proq aks eta borgan. XIII-XIV asr adabiyoti kasb-hunar terminlariga ancha boydir. XII asr yozma yodgorligi Zamaxshariyning “Muqaddimatul adab”da metallsozlik terminlaridan quyidagilarni uchramiz: bilazuk, boltu (bolta), bichki (arra deb izox berilgan), jiva, kalit, oltun, (zargar), chi dam, olmun suyi, pski, pulod, pulod qilich, pulod qaychi va boshqalar. Bu asarda boshqa xil kasblarga oid atamalar ham anchaginani tashkil etadi. XIV asr yozma adabiyotidan Rabg'uziyning “Qissasul anbiyo” sida ham kasb-hunar terminlari ko'p uchraydi. Bu asrning kasb-hunar (bo'zchilik, temirchilik, ipakchilik va hokazo) va turmush bilan bog'langan o'rinlarida ishlab chiqarishga doir terminlar anchagina aks ettirilgan. XV - XVI asr klassik adabiyotimiz, kasb-hunar terminlariga oldingi asrdagilarga nisbatan ham boydir. Navoiy o'zining asarlarida ijtimoiy hayot bilan bog'liq qismlarida kasb-hunar atamalaridan juda ustalik bilan foydalangan. “Muhokamat ul lug'atayn “da ham ko'pgina kasb-hunar atamalari aks ettirilgan. Bu o'rinda “Farhod va Shirin”dostonidagi, Farhodning Arman yurtiga borganida undagi suv chiqarish uchun tog' qazayotganlarning ishlariga ko'rsatgan yordami ta'rifida yozgan quyidagi misralari g'oyat diqqatga sazovordir:

Hunarni asrabon netkumdur oxir,

Olib tuproqqami ketkumdur oxir?

So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy o'z asarlarida kasb-hunar terminlarini ishlatish bilan birgalikda ular haqida ma'lumot ham keltirib o'tadi. Bakovul, adib, so'zovul, tunqotar, chovush, yasovul, ayg'oqchi, bitikchi, bovurchi, olg'inchi kabi kasb-hurarga oid leksemalar Alisher Navoiy asarlaridan o'rin olgan terminlar hisoblanadi. Alisher Navoiy kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi shaxslar nomi eski turkiy tilda “-vul”, “-chi” va shu kabi faol qo'shimchalar yordamida hosil bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Navoiy

asarlaridagi kasb-hunarga oid soʻzlarning asosiy qismi meʼmorchilikka oiddir, xususan: boniy, doygʻar, meʼmor, navkash, rozaliq va hokazo. Quyidagi jumlagʻa eʼtibor bering:

Gar oʻlsa falak sori alamkash,

Bor erdi koʻziga toʻti yovash.

Ushbu satrda qoʻllanilgan “alamkash” soʻzi ham kasb-hunarga oid leksika tarkibiga kiradi hamda bayroqdor, bayroq koʻtaruvchi maʼnolariga ega.

Oʻzbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (V1I-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski oʻzbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, shoʻrolar davri oʻzbek tili terminologiyasi va istiqlol davri oʻzbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam oʻn toʻrt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir boʻlgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi. Qadimgi turkiy til manbalarida qayd etilgan turfa kasb-hunar atamaları asosan sof turkiy tub va yasamalar hamda buddizm va moniyizm taʼsirida sugʻd, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan oʻzlashmalardan tashkil topgan edi. Masalan:

Bargu “soqchi, dozor”, tamga “tugʻro”, korugʻ “aygʻoqchi”, elci “elchi; hukmdor, yurtboshi”, yolci “sardor”, cigay “yoʻqsil, kambagʻar”, qislagʻ(q) “qoʻshinning qishki qarorgohi”, ayguci “davlat maslahatchisi” singari asl turkcha; cerigʻ/ cerik “qoʻshin, armiya”, sart “tojir, savdogar” kabi sanskritcha; xatun/ qatun “malika”, kent “qishloq; shahar” singari sugʻdcha; qagan “hukmdor”, xan “hokim”, tegin “xonzoda, shahzoda”, yabgu “xoqondan keyingi oliy lavozim egasi”, setjiin “xitoy generali”, tarqan “tarxon”, lit tugʻ “tuman hokimi” kabi xitoycha; sad “Turk xoqonligida oliy lavozim”, sadapit singari eroncha; Eski oʻzbek adabiy tili kasb-hunar atamalarining takomillashuvida, uning yanada yuqoriroq bosqichga koʻtarilishida tilning ichki qonuniyatlari qatori tashqi taʼsir, yaʼni ekstralingvistik omillarning roli salmoqli boʻlgan.

Bugungi kunga kelib esa nutqimizda qoʻllanilayotgan kasb-hunar leksikasida bir qator oʻzgarishlar yuz berdi, yaʼni ular orasida neologizmlar, arxaizmlar va shu kabi qator koʻrinishlar namoyon boʻla boshladi. Kasb-hunarga oid atamalar, asosan, xususiylik kasb etadi, yaʼni bir kasb-hunarga oid atamani ikkinchi kasb doirasida uchratish qiyin. Masalan, tikuvchilik kasbida qoʻllaniladigan atamalarining – igna, angishvona, ip va hokazo – oʻqituvchilik faoliyati doirasida duch kelishimiz mushkul masala. Chunki oʻqituvchilik kasbining oʻziga xos terminlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov H., "Oʻzbek tilining leksik tizimi" – Toshkent: Fan, 2018.
2. Saidov A., "Leksikologiya asoslari" – Toshkent: Maʼnaviyat, 2017.
3. Abdullayeva N., "Til va madaniyat aloqadorligi" – Toshkent: Akademnashr, 2019.
4. Normatov R., "Kasb-hunar atamalarining lugʻaviy va semantik tahlili" – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
5. Ismatov M., "Tilshunoslikning zamonaviy yoʻnalishlari" – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.

6. Qosimov N., "Madaniyat va til uyg‘unligi" – Toshkent: Sharq, 2020.
7. Ergashev U., "O‘zbek tilida atamalar tizimi" – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
8. Zohidov Sh., "Professional leksika va uning lingvistik xususiyatlari" – Toshkent: Ilm, 2021.
9. Muminov A., "Til va ijtimoiy o‘zgarishlar" – Toshkent: Akademnashr, 2019.
10. Rasulov O., "Til va sohalar: atamalarning tahliliy o‘rganilishi" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.